# PIECE CONCEPT printsipi boʻyichai bagaj qoidalariga oʻtish

**2021 27 Mart**

Hurmatli yoʻlovchilar!

Muhim maʼlumot:

2021-yilning 28-martidan “Uzbekistan airways” AJ oʻzining Oʻzbekiston-Istanbul/Dubay/Sharja va orqaga qaytish yoʻnalishlaridan tashqari barcha yoʻnalishlarda “Piece Concept” (bagajlar soniga koʻra) tartibi boʻyicha olib oʻtiladigan bagaj meʼyorlarini kiritmoqda. Shunga koʻra “Piece Concept” olib oʻtiladigan bagaj meʼyorlari amal qiladi:

- Xizmat koʻrsatishning biznes klassi - uch oʻlchov summasi boʻyicha 32 kgdan oshmagan va gabariti 158 sm dan oshmagan ogʻirlikdagi 1 roʻyxatga olingan bagaj, (INF) oʻrni berilmagan chaqaloq uchun uch oʻlchov summasi boʻyicha 10 kgdan oshmagan va gabariti 115 smdan oshmagan 1 roʻyxatga olingan bagaj;
- Xizmat koʻrsatishning ekonom klassi - uch oʻlchov summasi boʻyicha 23 kgdan oshmagan va gabariti 158 sm dan oshmagan ogʻirlikdagi 1 roʻyxatga olingan bagaj, (INF) oʻrni berilmagan chaqaloq uchun uch oʻlchov summasi boʻyicha 10 kgdan oshmagan va gabariti 115 smdan oshmagan 1 roʻyxatga olingan bagaj;
- Ekonom klassi uchun qoʻl yuki - 1 bagaj uchun 8 kg, biznes klassi uchun – 1 bagaj uchun 10 kg. Qoʻl yuki oʻlchami uch oʻlchov summasi boʻyicha 115 smdan oshmasligi lozim.

Istisno holatlar:

1. Oʻzbekiston – Istanbul/Dubay/Sharja va orqaga qaytish yoʻnalishlarida olib oʻtiladigan bagaj meʼyori “Weight Concept” tartibi boʻyicha amal qiladi. Shu bilan birga Istanbul/Dubay/Sharjaga/dan boʻlgan oʻtuvchi xalqaro yoʻnalishlarda olib oʻtiladigan bagaj meʼyori PC boʻyicha qoʻllaniladi (istisno Oʻzbekistonning shaharlariga/dan – Istanbul/Dubay/Sharja va orqaga qaytish oʻtuvchi yoʻnalishlarida olib oʻtiladigan bagaj meʼyori “Weight Concept” tartibi boʻyicha

qo‘llaniladi);

2. Nyu-York va Pekin uchun olib o‘tiladigan bagaj me’yori o‘zgarishlarsiz qoladi (istisno Toshkent - Nyu-York va orqaga qaytish yo‘nalishida 2021-yil 28-martdan sotuv uchun qaytarilmaslik sharti bilan ekonom klassi tariflari bo‘yicha 23 kgdan ortiq bo‘lmagan 1PC olib o‘tiladigan bagaj me’yori belgilanadi);

Chiptani sotib olishda albatta tariflarni qo‘llash shartlari va qoidalari bilan tanishib chiqishingizni so‘raymiz.